
KUN TARIXI: 14 FEVRAL – ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TAVALLUD TOPGAN KUN



Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yilning 14 fevralida Andijonda, Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Z.M.Bobur tug'ilgan kun – 14 fevral sanasi har yili mamlakatimiz bo'ylab adabiyot va ilm-ma'rifat bayrami sifatida nishonlanib kelmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur buyuk shoir, qomusiy olim, davlat arbobi va mohir sarkarda sifatida butun dunyoda ma'lum va mashhurdir. Uning beqiyos ilmiy-ijodiy merosi nafaqat milliy madaniyatimiz va xalqimiz adabiy-estetik tafakkurining shakllanishida, balki jahon adabiyoti, ilm-fani va davlatchiligi tarixida alohida o'ringa ega.

Bobur va boburiy shaxzodaning hayot yo'li, beqiyos bunyodkorliklari, davlat boshqaruvidagi islohotlari, kolaversa, ularning insoniy qiyofalari vatandoshlari qalbida katta qiziqish uyg'otishi shubhasiz Zahiriddin Muhammad Boburning ona-Vatani O'zbekistonda targ'ib va tavsif etish biz uchun g'oyat ahamiyatlidir.

Zero, Z.M.Boburning qon tomirlari turkiy qavmga, ya'ni o'zbeklarga kelib tutashadi va shu bois ularning ma'naviy merosi bizda milliy g'urur va iftixor xissini uyg'otadi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2024-02-14 09:54:34